

ZAMONAVIY O'ZBEK DETEKTIV ADABIYOTIDA SHAKL VA USLUB (NURIDDIN ISMOILOV VA KOMILJON SINDAROV ASARLARI ASOSIDA)

Jo'raqulova Mashxura Samat qizi

Termiz davlat universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bugungi kunda zamonaviy o'zbek detektiv adabiyotidagi o'ziga xos muammolar, yutuq va kamchiliklar, shuningdek, ularning shakl va uslub jihatdan hamohangligi mustaqillik davri o'zbek detektiv janri zabardast vakillari Nuriddin Ismoilov hamda Komiljon Sindarov asarlari asosida atroflicha yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *detektiv janr, hikoya, qissa, roman, epopeya, sobiq sovet hukumati detektiv adabiyoti, o'zbek detektiv adabiyoti*

ФОРМА И СТИЛЬ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ДЕТЕКТИВНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ НУРИДДИНА ИСМАИЛОВА И КОМИЛЖОНА СИНДАРОВА)

Аннотация: *В данной статье на основе произведений Нуриддина Исмаилова и Комилджона Синдарова, ведущих представителей узбекского детективного жанра времен период независимости.*

Ключевые слова: *детективный жанр, повесть, повесть, роман, эпопея, детективная литература бывшего советского государства, узбекская детективная литература.*

FORM AND STYLE IN MODERN UZBEK DETECTIVE LITERATURE (BASED ON THE WORKS OF NURIDDIN ISMAILOV AND KOMILJON SINDAROV)

Annotation: *In this article, the specific problems, achievements and shortcomings of modern Uzbek detective literature, as well as their form and stylistic coherence, are detailed based on the works of Nuriddin Ismailov and Komiljon Sindarov, the leading representatives of the Uzbek detective genre during the period of independence.*

Key words: *detective genre, story, short story, novel, epic, detective literature of the former Soviet government, Uzbek detective literature*

KIRISH

Adabiyot – yuksak ma'naviyat maskani. Ushbu jozibador olamga qadam bosgan har bir ijodkor yurak amriga quloq tutadi, inson atalmish ajib hilqatning ruhiy olamini o'rganishga, xulosalarini badiiy ifodalashga intiladi. Mazkur intilishlar zamirida adabiyot dunyosida turfa xil ranglar, ayricha shakl va uslublar bo'y ko'rsatadi.

Adabiyotning eng ko'p hamda sevib o'qiluvchi janrlaridan biri, shubhasiz, detektiv janridir. Detektiv adabiyotni ayrim adabiyotshunoslar faqat oldi-qochdi harakatlardan iborat "hazmi yengil" asarlar yaratiluvchi yo'nalish, deb hisoblaydilar. Biroq, ushbu mulohazani mutlaqo noto'g'ri, asossiz ekanligini isbotlovchi bir qancha nodir asarlar mavjudki, ular detektiv adabiyot namunasi bo'lish bilan bir qatorda, chuqur ruhiy-falsafiy g'oyalarni ham targ'ib qiladi. Xususan, adabiyotshunos va ijodkorlarning "Bozor adabiyoti yoxud badiiy so'z mas'uliyati" mavzusidagi davra suhbatida O'zbekiston xalq yozuvchisi O.Muxtor: "Sarguzasht, detektiv tushunchasi bilan "yengil asarlar" degan bahoni yonma-yon qo'yish ham o'rinsiz. Yozuvchilarimizdan X.To'xtaboyevning qator asarlari, Tohir Malikning "Shaytanat" yoki Said Ravshanning "Qironcha" asarini qiziqib o'qiysan. "Ularni umri qisqa, tezda unutilib ketadi" deyolmaysan, ayrimlari o'n yil, yigirma yil, ayrimlari yarim asrdan buyon yashayapti. O'quvchiga bahramandlikdan tashqari, ma'naviy-ruhiy oziq ham beryapti"[1],deb ta'kidlagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Umuman olganda, o'zbek adabiyotida detektiv janrining paydo bo'lishi bevosita dostonlari, "Uch og'a-ini botirlar" kabi bir qancha ertaklarda gunohkorlarni qidirish, jazolash jarayonlari bilan bog'liq sahnalar uchraydi. Ayni jarayonlarda detektiv adabiyotning unsurlari mavjudligini e'tirof etish mumkin.

Jadid adabiyoti yorqin namoyondasi Abdulla Qodiriyning "Shubha" nomli kichik hikoyasida detektiv janrga xos ba'zi xususiyatlarni ko'rish mumkin, ammo uni to'laqonli detektiv asar deb bo'lmaydi. Shuningdek, "O'tkan kunlar" romanida ham detektiv janri unsurlarini ilg'ash mumkin. Masalan, asarda Homidning jinoyatlarini fosh qilish uchun Otabekning nihoyatda puxtalik bilan harakat qilishi jahon detektiv adabiyotidagi mohir izquvarlarni yodga soladi[1].

Sobiq sovet hukumati davrida janr rivoji birmuncha to'xtab qoldi. Chunki, Hukumat tepasida turgan "daho"larga xalqni uyg'atuvchi, qaysidir ma'noda faqat ko'z o'ngidagi voqelikni emas uning ortini, asl mohiyatini ko'ra bilishni o'rgatuvchi asarlar mutlaqo kerak emas edi. Biroq, yonib yashovchi ijod ahlini jahonda kriminalistika uslubi jadal rivojlanib borayotgan davrda ushbu taqiq ostida uzoq vaqt mobaynida ushlab turish imkonsiz edi.

XX asrning 60-yillari boshida o'sha jimgina tutab turgan gulxan alangalandi, ya'ni Iskandar Qalandarovning "Shohidamas, bargida..." qissasi yaratildi. Mazkur asarning yangi janrdagi ilk urinishlardanligi diqqatga sazovor. Ammo, asarni badiiy jihatdan mukammal asar, deb bo'lmaydi[6].

XX asrning 70-yillarga kelib O'lmas Umarbekovning shunday ruhdagi asarlari janr taraqqiyotiga qo'shilgan katta hissa bo'ldi. Adib o'zbek adabiyotiga yangicha shakl va mzmun baxsh etdi. Qolaversa, O'lmas Umarbekov "Fotima va Zuhra" romani orqali g'arb detektiv adabiyotidan farqli ravishda detektiv izquvar ayol obrazini olib kirdi[7]. Chunki o'sha vaqtda jahon detektiv adabiyotida izquvarlar erkak jinsiga mansub bo'lardi. Keyinchalik bu janr oldida mas'uliyatni his qilgan yana bir yozuvchi – Tohir

Malikning “Shaytanat” asari chinakam o‘zbekona milliy detektiv yaratilganidan darak berdi. Bu asarda detektiv adabiyotga xos xususiyatlarni to‘laroq ko‘rishimiz mumkin.

Bu yo‘nalishda O. Muxtor, X. Do‘stmuhammad kabi adiblar ham yaxshi asarlar yaratdilar. Ushbu va yuqorida sanab o‘tilgan ijodkorlarning asarlarida detektiv janrida yetakchi omil sanaluvchi kriminalistik uslub yetakchilik qiladi. Ammo, har bir asarda u o‘quvchiga turli xil shaklda yetkaziladi. Masalan, Tohir Malikning “Shaytanat” romanida kitobxon dastlab voqelikdaan xabardor bo‘lib, asarni o‘qish davomida uni qanday yuzaga kelganligi sirini ochib boradi. Ayrim, o‘rinlarda voqelikdan xabardor bo‘lish kitobxoniga o‘zini hakamdek his qilish imkonini beradi. U chetdan asar qahramonlari qabul qilayotgan qarorlarini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aql tarozisida tortib ko‘radi va bevosita ma‘naviyatini boyitib, o‘zini tarbiyalab boradi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” qissasida ham bevosita detektiv janr shakllari ko‘zga tashlanadi. Adib asardagi jumboq sirini asar oxiriga olib qo‘yadi. Kitobxon asarni o‘qish mobaynida har bir qahramon hayotida yashab, kechinmalarini birgalikda his qilib ko‘radi. Yozuvchi kitobxonni har bir shubha-gumonni mulohaza qilib ko‘rishga undaydi. Natijada, kitobxon mutolaa mobaynida asar ichida yashaydi.

Qolaversa, yuqorida keltirilgan detektiv asarlar o‘zining sodda, xalqchil, tushunarli va o‘qish mobaynida kitobxonda zerikish hissini uyg‘otmaydigan ayriqcha lingvistik uslubda bitilganligi asar qiymatini yanada boyitadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Mustaqillik davri o‘zbek detektiv janriga ulkan hissa qo‘shib kelayotgan yozuvchi Nuriddin Ismoilovning “Odamlar orasidagi odamlar” hikoyalar to‘plami, “O‘limga mahkum qilinganlar”, “Milliarderga qo‘yilgan tuzoq”, “Burgut tog‘da ulg‘ayadi” (1-,2-kitoblar), “Jaholat qurbonlari”, “Omonat g‘or siri”, “Iblis saltanati” (1-,2-,3-kitoblar), “Shahzoda”, “Mafiya sardori”, , nomli detektiv-sarguzasht romanlari kitob holidan chop etilgan va detektiv janr ishqiboz kitobxonlari orasida iliq qarshi olingan. Muallifning “Odamlar orasidagi odamlar” asari hikoya janrida yozilgan bo‘lib to‘plamdan yozuvchining bir qator katta-kichik hikoyalari o‘rin olgan. Hikoyalar yozuvchi ijodining debochasi ekanligi diqqatli kitobxon uchun bir qarashda seziladi. Ammo, asarning uslubiy jihatdan sodda tilda yozilganligi va hikoyalar sujetining keskinligi, to‘plamdagi asarlarni hayotiyliki kitobxonni o‘ziga tortadi.

Muallifning sarguzasht-detektiv janrida yozilgan “Mafiyaning sardori” roman epopeyasi ham zamonaviy o‘zbek detektiv adabiyotining shakl va mazmun jihatdan boyitgan bebaho asardir. Asarda muallifning boshqa ijodiy ishlaridagi kabi voqealar sujetining kutilmagan, keskin burilishlarga boy tarzda kechishi kuzatiladi. Asar ilk debochasidanoq qizg‘in sahnalarga boy tarzda, Yulduz va Shohruhning kutilmaganda mushkul vaziyatga tushib qolishi bilan boshlanadi[9]. Asar voqealari qiziqarli, o‘quvchi ommasini zeriktirmaydigan tarzda kechadi. Roman uslub jihatdan sodda, xalqchil tilda yozilganligi asarni har qanday statusdagi ijtimoiy qatlam orasiga kirib borishini ta‘minlaydi. Ammo, asarda ayrim juz‘iy uslubiy g‘alazliklar ham mavjud bo‘lib, ba‘zi

o'rinlarda obraz tasvirida ortiqcha mubolag'aga yo'l qo'yilgan. Masalan, asarda keltirilgan "Kalit" laqabli epizod giperbolaga yaqqol misol bo'la oladi. Qolaversa, romandagi ayrim sahnalar detektiv-fantastik janr shaklida talqin qilingan. Shunga qaramasdan asarning ko'plab yutuqli jihatlari uni keng kitobxonlar jamiyatida ommalashishiga sabab bo'ladi.

Yozuvchi ijodining shoh asarlaridan biri "O'limga mahkum qilinganlar" sarguzasht-detektiv romanidir. Mazkur asarda maxfiy xizmat xodimlarining xavf-xatarlarga to'la jo'shqin hayoti, ba'zan har soniyada, har daqiqada o'lim bilan yuzmayuz kelgan, Vatan manfaatini o'z hayotlaridan ustun qo'ygan mard yigitlar jasorati; ezgulik va yovuzlik, sadoqat va hiyonat, poklik va razolat, e'tiqod va ochko'zlik o'rtasidagi abadiy kurash o'ziga xos badiiy uslubda yoritib berilgan. Asar bosh qahramoni Sodiq mas'uliyatli, sabrli, matonatli, sadoqatli va pok vijdonli ideal shaxs sifatida mahorat bilan gavdalantirib berilgan. Asarning qimmatligi shundaki, asar uslubiy jihatdan real voqelik hamda badiiy to'qimaning mohirona uyg'unligini namoyon etadi. Adib asarlariga xos yana bir jihat shundaki, muallif qalamiga mansub asarlarda o'zaro uyg'unlik seziladi.

Yana bir zamonaviy o'zbek detektiv adabiyotining yorqin vakili, huquqshunos, yuridik fanlar doktori, dotsent Komiljon Sindarov asarlari ham bugungi kun o'zbek detektiv adabiyotlari xazinasini boyitib kelmoqda. Adibning sohadagi eng muhim yutuqlaridan biri shundaki, u hayotiy tajribalarini, ko'rgan kechirganlarini mahorat bilan kitobga sola olganligidadir. Shu bois yozuvchi asarlari orasida mazmunan yaqinlik ko'zga tashlanmaydi. Balki, har bir asardagi har bir epizod bir-biridan mutlaq o'zgacha olamni, turfa taqdirni namoyish etadi. Ammo, barcha asarda muallifning o'ziga xos keskinlik, hayotiylik, chigal jumboqlilik uslubi sezilib turadi. Bugungi kunda adib qalamiga mansub "Kechikkan qasos", "Amirlikning oltin taxti izidan", "Temuriylar kutubxonasining siri", "Qimmatga tushgan xato", "Dorixonadagi qotillik" singari bir qancha mashhur asarlar mavjud.

Adib qalamiga mansub "Qimmatga tushgan xato" asarida prokuratura bo'lim boshlig'i lavozimida ishlayotgan, o'z kasbining fidoyisi, bir oilaning mehribon otasi sirli ravishda yo'qoladi. Asar mazkur voqealar bilan boshlanib muallif kitobxonni jumboqning sirini mutolaa davomida qahramonlar bilan birgalikda ochishga undaydi.

Komiljon Sindarovning yana bir kitobxonlar tomonidan muvaffaqiyatli qarshi olingan asarlaridan biri "Tungi qotillik" qissasidir. Ushbu qissadagi bosh qahramonlar Sanjarbek va Fahriddin o'z ishiga vijdonan yondashadigan, ko'ngliga qarab ish tutadigan tergovchilar sifatida gavdalantiriladi. Ammo, asarda mazkur qahramonlar sohasida hamisha ham ko'ngilchanlik ish bermasligi, aksincha mushkul vaziyatlarga solib qo'yishi, har qanday xislatda ham oltinga teng me'yorni ushlay bila olishlik zarurligi ijodkorga xos sirlilik va izchillik, shu bilan birga kutulmagan keskin sahnalarga boy sujetlilik orqali ochib beriladi[10].

Muallif asarlariga xos umumiy jihat shundan iboratki, ulardagi voqealar hayotiyligi yaqqol sezilib turadi. Chunki, kitobxonlar asardagi jumboqni har qancha oldindan bashorat qilmasin, voqealar chigallashib kutilmagan sirlar chiqib kelaveradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'zbek adabiyotida detektiv unsurlari qadimdan mavjud. Xususan, XX asrda detektivnamo asarlar yaratilishida ijtimoiy-siyosiy tuzum taqiqlari tufayli uning janr tariqasida shakllanishiga jiddiy to'siqlar qo'yilganligiga qaramasdan, ilk tajriba sifatida diqqatga sazovor asarlar paydo bo'ldi va o'zbek detektiv adabiyotida ham badiiy salmog'i baland, shu bilan birga, bu yo'nalishdagi talablarga javob beruvchi asarlar yaratish mumkinligi o'z isbotini topdi. Qolaversa, ushbu yo'nalishda ijod qilgan hamda qilayotgan ijodkorlarning har biri ushbu janrda o'ziga xos uslublarini yarata oldilar. Shunga qaramasdan, bugungi kunda zamonaviy o'zbek detektiv adabiyotini yanada rivojlantirish uslub hamda shakllar xilma-xilligini oshirish, adabiyotga yangicha yondashuvlarni olib kirish soha vakillari oldidagi ustuvor vazifalardan biridir.

REFERENCES:

1. Мирвалиев С. Наср, давр ва қаҳрамон. –Тошкент.: Адабиёт ва санъат, 1983.-32 б.
2. Озод рўмон орзуси (Ёзувчи А. Саид ва мунаққид А. Отабой суҳбати) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -1996, 12 апрель.
3. Словарь иностранных слов. –М.: ОГИЗ, 1942;
4. А. Тимофеев и Н. Венгеро́в. Краткий словарь литературоведческих терминов. – М.: Учпедгиз, 1955.
5. Раҳмонов И. Саргузашт асарларда анъана ва замонавийлик.-ЎТА, 1979,5-сон,- Б. 72-76
6. Qalandarov I. Shohidamas, bargida... OZ.adabiynashr – T.: 1962.
7. Umarbekov O'. Tanlangan asarlar. 1–jild. Sharq. – T.: 2002.
8. Malik T. Shaytanat. Sharq. – T.: 2006.
9. Ismoilov N.Mafiyaning sardori. – T.: 2008.
10. Sindarov K. Tungi qotillik. – T.: 2010.